

## XORIJIY DAVLATLAR QONUNCHILIGIDA “YOSH BOLA” VA “OJIZ AHVOLDAGI SHAXS”LARNING JINOYAT-HUQUQIY HIMOYASINI TARTIBGA SOLINISHI

Axmedova Sarvinoz Ikromovna

Toshkent Davlat Yuridik Universitet magistranti

ahmedovas843@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20427717>

**Annotatsiya.** Ushbu tezisdagi xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida “yosh bola” hamda “ojiz ahvoldagi shaxs”larning jinoyat-huquqiy himoyasi masalalari qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, xalqaro huquqiy standartlar, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Kanada, AQSh va Rossiya jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlar, yosh bolalar, jismoniy yoki ruhiy holati sababli o‘zini himoya qila olmaydigan shaxslar, nogironligi, kasalligi, yoshi yoki boshqa holatlar tufayli zaiflashgan jabrlanuvchilarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlikning og‘irlashtirilishi yoritiladi. Tadqiqot natijasida mazkur toifadagi shaxslarni himoya qilishda xorijiy davlatlarda uch asosiy yondashuv — maxsus jinoyat tarkibini belgilash, jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida tan olish va jabrlanuvchining roziligini huquqiy ahamiyatga ega emas deb baholash mexanizmlari shakllanganligi asoslanadi.

**Kalit so‘zlar:** yosh bola, ojiz ahvoldagi shaxs, jinoyat-huquqiy himoya, voyaga yetmagan jabrlanuvchi, zaif jabrlanuvchi, og‘irlashtiruvchi holat, xalqaro standartlar, qiyosiy jinoyat huquqi.

## РЕГУЛИРОВАНИЕ УГОЛОВНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ “МАЛОЛЕТНЕГО РЕБЁНКА” И “ЛИЦА, НАХОДЯЩЕГОСЯ В БЕСПОМОЩНОМ СОСТОЯНИИ” В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ

**Аннотация.** В данном тезисе в сравнительно-правовом аспекте анализируются вопросы уголовно-правовой защиты «малолетнего ребёнка» и «лица, находящегося в беспомощном состоянии» в уголовном законодательстве зарубежных государств. В частности, рассматриваются международно-правовые стандарты, а также нормы уголовного законодательства Германии, Франции, Великобритании, Канады, США и России, предусматривающие усиление ответственности за преступления, совершённые в отношении несовершеннолетних, малолетних детей, лиц, неспособных защитить себя вследствие физического или психического состояния, а также потерпевших, находящихся в уязвимом положении по причине инвалидности, болезни, возраста или иных обстоятельств. В результате исследования обосновывается, что в зарубежных государствах сформировались три основных подхода к защите указанной категории лиц: установление специального состава преступления, признание данного обстоятельства отягчающим ответственность и оценка согласия потерпевшего как не имеющего юридического значения.

**Ключевые слова:** малолетний ребёнок, лицо, находящееся в беспомощном состоянии, уголовно-правовая защита, несовершеннолетний потерпевший, уязвимый потерпевший, отягчающее обстоятельство, международные стандарты, сравнительное уголовное право.

## REGULATION OF THE CRIMINAL-LAW PROTECTION OF A “YOUNG CHILD” AND A “PERSON IN A HELPLESS CONDITION” IN THE LEGISLATION OF FOREIGN COUNTRIES

**Annotation.** This thesis analyzes the issues of criminal-law protection of a “young child” and a “person in a helpless condition” in the criminal legislation of foreign countries from a comparative legal perspective. In particular, it examines international legal standards and the criminal legislation of Germany, France, the United Kingdom, Canada, the United States and Russia concerning the aggravation of liability for crimes committed against minors, young children, persons unable to protect themselves due to their physical or mental condition, as well as victims who are vulnerable because of disability, illness, age or other circumstances. As a result of the study, it is substantiated that three main approaches have been developed in foreign countries for the protection of this category of persons: establishing a special corpus delicti, recognizing such circumstances as aggravating liability, and treating the victim’s consent as having no legal significance.

**Keywords:** young child, person in a helpless condition, criminal-law protection, minor victim, vulnerable victim, aggravating circumstance, international standards, comparative criminal law.

Jinoyat huquqining asosiy vazifalaridan biri shaxsning hayoti, sog‘lig‘i, sha‘ni, qadr-qimmatini, erkinligi va jinsiy daxlsizligini jinoiy tajovuzlardan himoya qilishdan iborat. Biroq jamiyatda barcha shaxslar bir xil darajada o‘zini himoya qila olmaydi. Ayniqsa, yosh bolalar, ruhiy yoki jismoniy holati sababli qarshilik ko‘rsata olmaydigan, kasalligi, nogironligi, keksa yoshi, hushsizligi, qaramligi yoki boshqa holatlar tufayli ojiz ahvolda bo‘lgan shaxslar jinoyatchilar tomonidan nisbatan oson nishonga olinadi. Shu sababli ko‘plab xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida bunday jabrlanuvchilar alohida huquqiy himoya obyektini sifatida tan olinadi.

Xalqaro huquqda bolalarni himoya qilishning asosiy manbalaridan biri BMTning 1989-yilgi “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyasi hisoblanadi. Konvensiyaning 19-moddasida ishtirokchi davlatlar bolani ota-ona, vasiy yoki boshqa shaxslar qaramog‘ida bo‘lgan paytda jismoniy yoki ruhiy zo‘ravonlik, haqorat, suiiste‘mol, beparvolik, ekspluatatsiya va jinsiy tajovuzlardan himoya qilish uchun qonunchilik, ma‘muriy, ijtimoiy va ta‘limiy choralarni ko‘rishi shartligi belgilangan.<sup>1</sup> Bundan tashqari, Yevropa Kengashining Lanzarote konvensiyasi bolalarga nisbatan jinsiy ekspluatatsiya va jinsiy zo‘ravonlikning barcha shakllarini kriminallashtirish, jabrlanuvchi bolalarni himoya qilish hamda aybdorlarni ta‘qib etish bo‘yicha maxsus majburiyatlarni belgilaydi.

Shu jihatdan qaralganda, “yosh bola” va “ojiz ahvoldagi shaxs” tushunchalari faqat yosh yoki sog‘liq holatini emas, balki jabrlanuvchining real ijtimoiy, psixologik va jismoniy himoyasizlik holatini ham ifodalaydi.

Xalqaro standartlarda bolalar jinoyat-huquqiy himoyaning eng muhim subyektlaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasida bola nafaqat ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxs, balki mustaqil huquq egasi sifatida tan olinadi. Konvensiya davlatlardan bolani zo‘ravonlik, beparvolik, jinsiy suiiste‘mol va ekspluatatsiyadan himoya qilish uchun samarali huquqiy mexanizmlar yaratishni talab qiladi.

Yevropa huquqiy makonida esa Lanzarote konvensiyasi alohida ahamiyatga ega. Mazkur konvensiya bolalarga nisbatan jinsiy ekspluatatsiya va jinsiy zo‘ravonlikning barcha shakllarini

---

<sup>1</sup> Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi tomonidan 1992-yilda ratifikatsiya qilingan.

jinoyat deb e'tirof etishni, shuningdek bunday jinoyatlarni oldini olish, jabrlanuvchi bolalarni himoya qilish va aybdorlarni jinoiy javobgarlikka tortish bo'yicha davlatlar zimmasiga majburiyat yuklaydi. Bu yondashuv shuni ko'rsatadiki, xorijiy davlatlarda bolalarning jinoyat-huquqiy himoyasi oddiy umumiy normalar bilan emas, balki maxsus himoya mexanizmlari orqali ta'minlanadi.<sup>2</sup>

“Ojiz ahvoldagi shaxs” tushunchasi xalqaro huquqda har doim yagona atama sifatida ishlatilmasa-da, mazmunan “vulnerable victim”, “particularly vulnerable person”, “helpless person”, “person unable to resist” kabi tushunchalar orqali ifodalanadi. Bunday shaxslar odatda yoshi, kasalligi, nogironligi, ruhiy holati, hushsizligi, homiladorligi, moddiy yoki ijtimoiy qaramligi tufayli o'z huquqlarini mustaqil himoya qila olmaydigan jabrlanuvchilar sifatida baholanadi.

Germaniya Jinoyat kodeksida bolalar va qaram shaxslarni himoya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Germaniya Jinoyat kodeksining 225-paragrafi “himoya ostidagi shaxslarni qiynash yoki ularga yomon munosabatda bo'lish” bilan bog'liq maxsus jinoyat tarkibini nazarda tutadi. Ushbu norma bola, voyaga yetmagan, kasalligi yoki ojizligi sababli g'amxo'rlikka muhtoj shaxsga nisbatan g'amxo'rlik majburiyati bo'lgan shaxs tomonidan yomon munosabatda bo'lish, azob berish yoki sog'lig'iga zarar yetkazishni jinoyat deb belgilaydi.<sup>3</sup>

Germaniya modelining muhim jihati shundaki, unda jabrlanuvchining zaifligi faqat jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida emas, balki mustaqil jinoyat tarkibining asosiy belgisi sifatida ham belgilanadi. Masalan, bola ota-ona, vasiy, pedagog yoki boshqa g'amxo'rlik qiluvchi shaxs nazoratida bo'lsa, ushbu shaxsning huquqiy majburiyati kuchayadi. Ya'ni Germaniya jinoyat huquqida “himoya munosabati” mavjudligi javobgarlikni kuchaytiruvchi asos sifatida qaraladi.

Fransiya Jinoyat kodeksida “particulière vulnérabilité”, ya'ni “alohida zaiflik” tushunchasi keng qo'llaniladi. Fransiya Jinoyat kodeksining 222-13-moddasida zo'rvonlik harakatlari 15 yoshga to'lmagan voyaga yetmagan shaxsga yoki yoshi, kasalligi, nogironligi, jismoniy yoxud ruhiy nuqsoni, homiladorligi sababli alohida zaifligi aybdorga ma'lum bo'lgan yoki ma'lum bo'lishi mumkin bo'lgan shaxsga nisbatan sodir etilsa, javobgarlik og'irlashtirilishi belgilangan.

Fransiya tajribasida e'tiborli jihat shuki, jabrlanuvchining zaifligi faqat obyektiv holat bo'lishi yetarli emas; u aybdorga ma'lum bo'lishi yoki aniq ko'rinib turishi ham talab etiladi. Masalan, jabrlanuvchining juda yoshligi, nogironligi, homiladorligi yoki jismoniy ojizligi jinoyatchi tomonidan anglangan bo'lsa, bu holat javobgarlikni og'irlashtiradi.<sup>4</sup>

Fransiya modeli “yosh bola” va “ojiz ahvoldagi shaxs” himoyasida ikki mezonni birlashtiradi: birinchisi-yoshga asoslangan himoya, ikkinchisi-real zaiflik holatiga asoslangan himoya. Bu esa jinoyat huquqida individual yondashuvni kuchaytiradi.

Buyuk Britaniya, xususan Angliya va Uels huquqida bolalarni jinsiy jinoyatlardan himoya qilish masalasi Sexual Offences Act 2003 orqali batafsil tartibga solingan. Ushbu qonunda bolalarga nisbatan jinsiy xarakterdagi harakatlar alohida jinoyat tarkiblari sifatida belgilangan. Crown Prosecution Service izohlariga ko'ra, 2003-yilgi qonun bolalarga qarshi jinsiy jinoyatlarni turli yosh toifalari bo'yicha ajratadi; masalan, 13 yoshga to'lmagan bolaga nisbatan jinsiy penetratsiya alohida og'ir jinoyat hisoblanadi.

<sup>2</sup> Council of Europe Convention on the Protection of Children against Sexual Exploitation and Sexual Abuse. Lanzarote Convention. – Lanzarote, 25 October 2007.

<sup>3</sup> German Criminal Code: Strafgesetzbuch, StGB. Section 225. Mistreatment of persons under protection. – Federal Ministry of Justice of Germany.

<sup>4</sup> French Penal Code: Code pénal. Article 222-13. – Paris: Légifrance, current edition.

Bu yerda eng muhim huquqiy yondashuv shundan iboratki, yosh bola jinsiy munosabatga rozilik berishga huquqiy jihatdan qodir deb hisoblanmaydi. Ya'ni bolaning “roziligi” jinoyat tarkibini istisno qilmaydi. Mazkur yondashuv bolani jinoyat-huquqiy himoya qilishda formal yosh chegarasiga asoslanadi.

Kanada Jinoyat kodeksida voyaga yetmagan shaxslar va zaif jabrlanuvchilarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirish mexanizmi keng qo'llanadi. Kanada Jinoyat kodeksining rasmiy matnida bolalarni mamlakatdan olib chiqish, bolalarga nisbatan jinsiy jinoyatlar va boshqa himoya mexanizmlari alohida tartibga solingan.

Kanada huquqida muhim jihatlardan biri shundaki, jinoyat sodir etishda aybdor shaxs voyaga yetmagan jabrlanuvchiga nisbatan ishonch, hokimiyat yoki qaramlik munosabatidan foydalangan bo'lsa, bu jazo tayinlashda og'irlashtiruvchi holat sifatida baholanadi. Kanada jazo tayinlash amaliyotida jabrlanuvchining yoshi, sog'lig'i, ruhiy yoki jismoniy holati, iqtisodiy va ijtimoiy zaifligi jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini oshiruvchi omil sifatida e'tiborga olinadi <sup>5</sup>

Kanada modelida “ojiz ahvoldagi shaxs” tushunchasi aniq bir yopiq ro'yxat bilan cheklanmaydi. Aksincha, sud jabrlanuvchining holatini real vaziyatdan kelib chiqib baholaydi. Bu esa huquqni qo'llashda moslashuvchanlik yaratadi, biroq bir vaqtning o'zida sud amaliyotining izchilligini talab qiladi.

AQSh federal jazo tayinlash tizimida “vulnerable victim”, ya'ni “zaif jabrlanuvchi” instituti mavjud. AQSh Federal Sentencing Guidelines §3A1.1(b) ga ko'ra, agar aybdor jabrlanuvchining zaifligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan bo'lsa, jazo darajasi oshiriladi. AQSh Sentencing Commission ma'lumotlariga ko'ra, federal jazo qo'llanmasining Chapter Three, Part A qismi jabrlanuvchiga bog'liq tuzatishlarni, jumladan vulnerable victim adjustment mexanizmini nazarda tutadi.

AQSh modelining ahamiyatli tomoni shundaki, “zaif jabrlanuvchi” deganda faqat bola emas, balki yoshi, jismoniy yoki ruhiy holati, kasalligi, nogironligi yoki boshqa xususiyatlari sababli jinoyatga nisbatan odatdagi shaxsga qaraganda ko'proq himoyasiz bo'lgan shaxs tushuniladi. Bu yondashuv jinoyat tarkibidan ko'ra ko'proq jazo tayinlash bosqichida qo'llanadi.<sup>6</sup>

Shuningdek, AQShda bolalarga nisbatan jinsiy ekspluatatsiya, bolalar pornografiyasi, odam savdosi, zo'ravonlik va beparvolik holatlari federal hamda shtat qonunlari darajasida alohida tartibga solinadi. Shu sababli AQSh huquqiy tizimida bolalar va ojiz shaxslarni himoya qilish ko'p darajali: federal qonunchilik, shtat qonunchiligi va jazo qo'llanmalari orqali amalga oshiriladi.

Rossiya Jinoyat kodeksida “bepomoshchnoye sostoyaniye”, ya'ni “ojiz/qarshilik ko'rsata olmaydigan holat” tushunchasi bir qator jinoyat tarkiblarida qo'llaniladi. Masalan, Rossiya JKning 105-moddasi 2-qismi “v” bandida aybdorga ma'lum bo'lgan holda ojiz ahvoldagi shaxsni o'ldirish og'irlashtirilgan qotillik sifatida belgilangan. Ingliz tilidagi tarjimada bu “a person who is known by the killer to be in a helpless state” tarzida ifodalangan.

Rossiya JKning 131-moddasida nomusga tegish jinoyati zo'rlik, zo'rlik ishlatish bilan tahdid qilish yoki jabrlanuvchining ojiz ahvolidan foydalanish orqali sodir etilishi mumkinligi ko'rsatilgan. Bundan tashqari, 12 yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan ayrim jinsiy jinoyatlar sodir

<sup>5</sup> Criminal Code of Canada. R.S.C., 1985, c. C-46. – Ottawa: Department of Justice Canada, current edition.

<sup>6</sup> United States Sentencing Guidelines Manual. § 3A1.1. Vulnerable Victim. – Washington: United States Sentencing Commission, current edition.

etilganda, bunday shaxs yoshiga ko‘ra sodir etilayotgan harakatlarning xarakteri va ahamiyatini anglay olmaydi, deb baholanadi.<sup>7</sup>

Rossiya modelida “yosh bola” va “ojiz ahvoldagi shaxs” tushunchalari ayrim hollarda o‘zaro kesishadi. Ya’ni juda yosh bolaning o‘zi ham huquqiy jihatdan ojiz ahvoldagi shaxs sifatida qaraladi. Biroq bu yondashuvda asosiy masala aybdorning ushbu holatni anglaganligi yoki anglash imkoniyatiga ega bo‘lganligini isbotlashdan iborat bo‘ladi.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, “yosh bola” va “ojiz ahvoldagi shaxs”larni jinoyat-huquqiy himoya qilishda bir nechta asosiy model mavjud.

Birinchi model — maxsus jinoyat tarkibini belgilash modeli. Germaniya va Buyuk Britaniya tajribasida bu yaqqol ko‘rinadi. Masalan, Germaniya qonunchiligida himoya ostidagi shaxsga nisbatan yomon munosabatda bo‘lish alohida jinoyat tarkibi sifatida belgilangan bo‘lsa, Buyuk Britaniya qonunchiligida bolalarga nisbatan jinsiy jinoyatlar yosh chegaralari bo‘yicha mustaqil tarkiblarga ajratilgan.

Ikkinchi model — jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida baholash modeli. Fransiya, Kanada va AQSh qonunchiligida jabrlanuvchining yoshi, nogironligi, kasalligi, homiladorligi, ruhiy holati yoki boshqa zaiflik belgilari aybdorning javobgarligini kuchaytiruvchi omil sifatida e’tirof etiladi. Bunday yondashuv jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi jabrlanuvchining shaxsiy holati bilan ham bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Uchinchi model — rozilikning huquqiy ahamiyatini cheklash modeli. Bu, ayniqsa, bolalarga nisbatan jinsiy jinoyatlarda muhimdir. Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya qonunchiligida ma’lum yoshga yetmagan bolaning jinsiy harakatlarga roziligi huquqiy jihatdan haqiqiy rozilik sifatida baholanmaydi. Chunki bola o‘zining yoshi va psixologik rivojlanish darajasi sababli sodir etilayotgan harakatlarning mohiyatini to‘liq anglay olmaydi.

Xorijiy davlatlar qonunchiligi tahlili shuni ko‘rsatadiki, yosh bolalar va ojiz ahvoldagi shaxslarning jinoyat-huquqiy himoyasi zamonaviy jinoyat huquqining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bunday shaxslar o‘zining yoshi, ruhiy yoki jismoniy holati, kasalligi, nogironligi, qaramligi yoki ijtimoiy zaifligi sababli jinoyatga nisbatan ko‘proq himoyasiz bo‘ladi. Shu bois xorijiy mamlakatlar ularni oddiy jabrlanuvchi sifatida emas, balki alohida huquqiy himoyaga muhtoj subyekt sifatida baholaydi.

Germaniya tajribasi himoya ostidagi shaxslar bilan bog‘liq maxsus jinoyat tarkiblarini belgilash orqali ajralib turadi. Fransiya qonunchiligida “alohida zaiflik” mezonini aniq ko‘rsatilgan bo‘lib, yosh, kasallik, nogironlik, ruhiy yoki jismoniy nuqson va homiladorlik kabi holatlar javobgarlikni og‘irlashtiradi. Buyuk Britaniya qonunchiligi bolalarning jinsiy daxlsizligini qat’iy yosh chegaralari orqali himoya qiladi. Kanada va AQSh tajribasida esa jabrlanuvchining zaifligi jazo tayinlashda muhim og‘irlashtiruvchi omil sifatida baholanadi. Rossiya qonunchiligida “ojiz ahvol” tushunchasi qotillik, jinsiy jinoyatlar va boshqa og‘ir jinoyatlar tarkibida alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur qiyosiy tahlildan kelib chiqib, milliy jinoyat qonunchiligini takomillashtirishda “yosh bola” va “ojiz ahvoldagi shaxs” tushunchalarini aniqroq belgilash, ularni nafaqat ayrim jinoyat tarkiblarida, balki umumiy og‘irlashtiruvchi holat sifatida ham tizimli qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, jabrlanuvchining ojizligi faqat jismoniy qarshilik ko‘rsata olmaslik bilan cheklanmasdan, ruhiy, ijtimoiy, iqtisodiy va qaramlik holatlari bilan ham baholanishi lozim.

<sup>7</sup> Уголовный кодекс Российской Федерации. Федеральный закон от 13 июня 1996 г. № 63-ФЗ. Статьи 105, 131. – Москва: Проспект, 2024.

### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1992-yilda ratifikatsiya qilingan.
2. Council of Europe Convention on the Protection of Children against Sexual Exploitation and Sexual Abuse. Lanzarote Convention. – Lanzarote, 25 October 2007.
3. German Criminal Code: Strafgesetzbuch, StGB. Section 225. Mistreatment of persons under protection. – Federal Ministry of Justice of Germany.
4. French Penal Code: Code pénal. Article 222-13. – Paris: Légifrance, current edition.
5. Criminal Code of Canada. R.S.C., 1985, c. C-46. – Ottawa: Department of Justice Canada, current edition.
6. United States Sentencing Guidelines Manual. § 3A1.1. Vulnerable Victim. – Washington: United States Sentencing Commission, current edition.
7. Уголовный кодекс Российской Федерации. Федеральный закон от 13 июня 1996 г. № 63-ФЗ. Статьи 105, 131. – Москва: Проспект, 2024.
8. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan. Amaldagi tahriri. – Toshkent: Adolat, 2024.
9. O'zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni. 2008-yil 7-yanvar, O'RO-139-son. – Toshkent: Adolat, 2008.
10. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. 1-jild. – Toshkent: Adolat, 2016.